

Oriental Journal of Education



TYPES OF MODERN EDUCATION IN THE COGNITIVE PROCESS

Gulchehra Sagdiyevna Shakhaldarova

DSc Doctoral Candidate

Qori Niyoziy National Institute of Pedagogical Education

E-mail: shaxaldarovagulchehra@gmail.com

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: cognitive development, perception, attention, memory, thinking, creativity, logical thinking, social and emotional education, metacognitive approach, interdisciplinary integration, innovative pedagogy.

Received: 15.04.26

Accepted: 16.04.26

Published: 17.04.26

Abstract: This article analyzes innovative approaches to organizing the educational process in the modern education system. The essence, types of modern educational methods and their role in the cognitive, social and emotional development of the student's personality, the content of cognitive abilities, their types and development mechanisms are widely covered from a scientific and pedagogical point of view. The psychological foundations of cognitive processes such as perception, attention, memory, thinking, speech, logical thinking and creative thinking are deeply analyzed and their role in the educational process is also revealed. The possibilities of developing cognitive processes using modern educational technologies are also revealed.

KOGNITIV JARAYONDA ZAMONAVIY TARBIYA TURLARI

Gulchehra Sagdiyevna Shaxaldarova

Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti

DSc doktoranti

shaxaldarovagulchehra@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: kognitiv rivojlanish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, ijtimoiy-emotsional tarbiya, metakognitiv yondashuv, fanlararo integratsiya, innovatsion pedagogika.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida tarbiya jarayonini tashkil etishning innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Zamonaviy tarbiya usullarining mohiyati, turlari hamda ularning o'quvchi shaxsining kognitiv, ijtimoiy va emotsional rivojlanishidagi o'zni ilmiy-nazariy jihatlarini, kognitiv qobiliyatlarning mazmuni, ularning

turlari va rivojlantirish mexanizmlari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan keng yoritiladi. Idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutq, mantiqiy fikrlash va ijodiy tafakkur kabi kognitiv jarayonlarning psixologik asoslari hamda ularning o'quv jarayonidagi o'rni chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalari yordamida kognitiv jarayonlarni rivojlantirish imkoniyatlari ochib beriladi.

ВИДЫ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В КОГНИТИВНОМ ПРОЦЕССЕ

Гульчехра Сагдиевна Шахалдарова

Докторант (DSc)

Национальный институт педагогического образования имени Кори Ниёзий

E-mail: shaxaldarovagulchehra@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: познавательное развитие, восприятие, внимание, память, мышление, творчество, логическое мышление, социально-эмоциональное воспитание, метакогнитивный подход, междисциплинарная интеграция, инновационная педагогика.

Аннотация: В данной статье анализируются инновационные подходы к организации образовательного процесса в современной системе образования. Подробно рассматриваются сущность, типы современных методов обучения и их роль в познавательном, социально-эмоциональном развитии личности учащегося, научно-теоретические аспекты содержания познавательных способностей, их типы и механизмы развития с научно-педагогической точки зрения. Глубоко анализируются психологические основы познавательных процессов, таких как восприятие, внимание, память, мышление, речь, логическое мышление и творческое мышление, а также их роль в образовательном процессе. Раскрываются также возможности развития познавательных процессов с использованием современных образовательных технологий.

Kirish. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti ta'lim tizimidan har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashni talab etmoqda. Shu bois tarbiya jarayoni ham an'anaviy yondashuvlardan zamonaviy, ilmiy asoslangan usullarga o'tishni taqozo etadi. Zamonaviy tarbiya usullari shaxsning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini kompleks tarzda ta'minlashga xizmat qiladi.

Kognitiv qobiliyatlar insonning atrof-muhitdan axborot qabul qilishi, uni tahlil qilishi, qayta ishlashi, eslab qolishi va uni amaliy faoliyatda qo'llay olish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Kognitiv

jarayonlar ta'lim jarayonining poydevori hisoblanadi. Ularning rivojlangan darajasi o'quvchi shaxsining bilim o'zlashtirish tezligi, fikrlash darajasi, mustaqil izlanish ko'nikmalari va ijodiy yondashuvlarida namoyon bo'ladi. Ta'limni modernizatsiyalash jarayonida ushbu qobiliyatlarni shakllantirish masalasi yana-da dolzarblashmoqda.

Kognitiv jarayonlarning nazariy asoslari. Psixologiya fanida kognitiv jarayonlar ongning asosiy faoliyatlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Ular analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish, kategoriyalash, xulosa chiqarish, tasniflash va mantiqiy mulohaza yuritish kabi yuqori darajadagi aqliy harakatlarni qamrab oladi. Kognitiv jarayonlarni chuqur o'rganish XX asr o'rtalarida kognitiv psixologiyaning shakllanishi bilan boshlanib, bugungi kunda keng qamrovli ilmiy yo'nalishga aylangan.

Idrok jarayoni va uning rivojlanishi.

Idrok insonning sezgi organlari orqali oladigan axborotlarni ma'noga ega obrazlarga aylantirish jarayonidir. Vizual, eshituv, taktil, hid va ta'm idroklarining har biri o'quv jarayonida muhim o'rin tutadi. Idrok sifati bolalarning kuzatuvchanligi, farqlash qobiliyati, ko'rish-motor koordinatsiyasi va sensor tajribalariga bog'liq bo'ladi.

Diqqatning pedagogik ahamiyati. Diqqat — ongning muayyan obyektga yo'naltirilishi va uni boshqarish qobiliyatidir. Diqqatning barqarorligi, bo'linuvi, ko'chishi va hajmi o'quvchilarning o'qish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror diqqat yuqori bo'lgan o'quvchilar topshiriqlarni aniqlik bilan bajaradi, matnni yaxshiroq tushunadi va mantiqiy xulosalar chiqaradi.

Xotiraning turlari va rivojlantirish mexanizmlari. Xotira axborotni kodlash, saqlash va qayta tiklash jarayonidir. Qisqa muddatli, uzoq muddatli, mantiqiy, vizual, eshituv, emotsional va motor xotiralarning har biri ta'limda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar xotirasini kuchaytirish uchun klaster tuzish, assotsiativ metodlar, takrorlash sikllari, grafik organayzerlar va mnemonik usullar samarali hisoblanadi.

Tafakkur va mantiqiy fikrlash.

Tafakkur — murakkab kognitiv faoliyat bo'lib, u tahlil, sintez, taqqoslash, abstraktlashtirish, umumlashtirish, konseptual fikrlash va xulosa chiqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Mantiqiy fikrlash esa olingan faktlar asosida aniq va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Bugungi ta'lim jarayonida tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirish ustuvor yo'nalishga aylangan.

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari

Konstruktiv ta'lim, loyihaviy faoliyat, interaktiv metodlar, muammoli ta'lim, STEAM yondashuv, o'yin texnologiyalari va reflektiv metodlar kognitiv jarayonlarni jadallashtiradi. Mashg'ulotlarda grafik organayzerlardan foydalanish, kichik guruhlar bilan ishlash va tadqiqotga yo'naltirilgan topshiriqlar kognitiv faollikni oshiradi.

Kognitiv rivojlanishga ta'sir qiluvchi omillar.

Ta'lim va tarbiya:

erta rivojlantiruvchi mashg'ulotlar;

o'yin orqali o'rganish – konstruktiv, rolli o'yinlar;

maktab va bog'cha sifati;

Psixologik omillar:

motivatsiya va qiziqish;

o'ziga ishonch;

stress va qo'rquvning kam bo'lishi;

Atrof-muhit ta'siri:

texnologiyadan foydalanish – me'yorida bo'lsa foydali, ortiqcha bo'lsa zararli;

ekologiya – havo, suv sifati.

Biologik, psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillar kognitiv rivojlanishning asosiy determinantlari sanaladi. Oilaviy muhit, ta'lim sifati, o'qituvchi kompetensiyasi, o'quv motivatsiyasi, madaniy tajriba va individual psixologik xususiyatlar kognitiv qobiliyatlarning shakllanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy tarbiya usullarining asosiy yo'nalishlari:



1-rasm.

Ijtimoiy-emotsional tarbiya.

Ijtimoiy-emotsional tarbiya (Social Emotional Learning) o'quvchilarda o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish, ijtimoiy muhitda moslashish va samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv shaxsning psixologik barqarorligi va ijtimoiy faolligini ta'minlaydi.

Kognitiv va metakognitiv tarbiya.

Kognitiv tarbiya o'quvchilarning tafakkur jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qilsa, metakognitiv yondashuv o'quvchining o'z fikrlash faoliyatini tahlil qilishi, nazorat qilishi va baholashiga yo'naltirilgan. Bu usul ta'lim-tarbiyada mustaqil fikrlash va refleksiyaning rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Muammo asosida tarbiyalash.

Muammo asosida tarbiyalash real hayotiy vaziyatlar asosida tashkil etilib, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantiradi. Bu usul shaxsning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Fanlararo integratsiyaga asoslangan tarbiya.

Fanlararo integratsiya turli fanlar mazmunini uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda yaxlit bilim tizimini shakllantiradi. Bu yondashuv tarbiya jarayonini hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashga imkon beradi.

Raqamli va media savodxonlikka asoslangan tarbiya.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida raqamli tarbiya muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo'nalish o'quvchilarda axborotni tanqidiy baholash, internet madaniyatiga rioya qilish va kiberxavfsizlik qoidalarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tarbiya usullari ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ular orqali jamiyat ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh va ijtimoiy faol shaxslar tarbiyalanadi. Ushbu usullardan samarali foydalanish pedagoglarning kasbiy mahorati va ilmiy yondashuviga bog'liq. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish bugungi ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshirib, mustaqil fikrlaydigan, izlanuvchan va ijodkor shaxs kamolotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Karimova V. M. Umumiy psixologiya. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2018.
- 2.Hasanboyeva O. Pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
- 3.Bruner J. The Process of Education. – Harvard University Press, 1977.
- 4.Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives. – Longman, 1984.
- 5.Vygotsky L.S. Thought and Language. – MIT Press, 1986.